

“O'zkimyosanoat” AJ “Korrupsiyaga qarshi kurashish menejment tizimi” mavjudligini tasdiqlovchi xalqaro ISO 37001:2016 sertifikatini yana 1 yil muddatga uzaytirdi

// 07.12.2022

<https://uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/uzkimyosanoat-aj-korrupsiyaga-qarshi-kurashish-menejment-tizimi-mavjudligini-tasdiqlovchi-xalqaro-iso-37001-2016-sertifikat-muddatini-uzaytirdi>



Joriy yilning 5-6-dekabr kunlari ISO 37001:2016 xalqaro standart talablariga muvofiq “CERT International” xalqaro trening kompaniyasi mutaxassislari tomonidan “O'zkimyosanoat” AJning korrupsiyaga qarshi kurashish menejment tizimi birinchi kuzatuv auditidan muvaffaqiyatli o'tdi va xalqaro auditorlik va sertifikatlash tashkiloti tomonidan korrupsiyaga qarshi kurashish mexanizmi amalda samara berayotganining asosiy ko'rsatkichi hisoblanuvchi ISO 37001:2016 xalqaro muvofiqlik sertifikati muddatini yana 1 yilga uzaytirdi.

Ushbu ISO 37001:2016 xalqaro muvofiqlik sertifikati o'z navbatida “O'zkimyosanoat” AJ va uning xodimlarini korrupsiyaga qarshi talablar va axloqiy me'yorlarni hisobga olgan holda har doim o'z zimmasiga yuklatilgan majburiyatlarini vijdonan bajarishi, qonun hujjatlariga qat'iy rioya qilishi, teng

raqobat tamoyillariga asosan ish tutishi, halollik, ochiqlik va vijdonlilikning korporativ madaniyatini shakllantirish bo'yicha mas'ulyatini yanada oshirishga xizmat qiladi.